

Biz o'z sinfdoshlarimiz bilan birligda ishladik, erishgan yutuqlarimiz o'qishga qiziqishimiz, do'stligimiz va bir-birimizga samimiyy munosabatimiz tufaylidir. Men sizlar bilan faxrlanaman! Keling o'zimiz va sinfdoshlarimizni olqishlab qo'yamiz! Barakalla! Ofarin!

14-dars (13-mavzu). Suvning holatlari

Dars maqsadlari:

- 1. Ta'limiy:** o'quvchilarda suvning holatlari haqida bilimlarni shakllantirish; mustaqil javoblarni shakllantirish malakalari.
- 2. Tarbiyaviy:** o'quvchilarda bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishini tarbiyalash, o'qituvchi tomonidan ularga do'stona munosabatda bo'lishini ta'minlash.
- 3. Rivojlantiruvchi:** o'rganilayotgan hodisalarni kundalik hayotda qo'llash bo'yicha ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarning intellektual sifatlarini, bilish qiziqishlarini shakllantirish.

Kirish bosqichi (5 daqiqa). O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, o'qituvchi elektron jurnalga darsdagi va darsda bo'lмаган o'quvchilarni qayd qiladi.

Mavjud bilimlarni faollashtirish:

O'tgan darsimizda nimani o'rgandik, siz qish haqida nimalarni bilasiz?

Tavsiya! O'quvchiga vazifa taqdim etish

Birinchi navbatda sinfda tinchlikni saqlab, barcha o'quvchilar sizga qarashlarini ta'minlang. Ba'zi o'qituvchilar shovqinli muhitda ishlasa, ba'zilari diqqatni jalb qilish uchun chapak chalish yoki baland ovozda gapirish kabi turli usullarni qo'llaydilar.

So'zlaringiz qisqa, aniq va ijobjiy bo'lsin. Ovozingiz qat'iy va ishonchli jaranglashi kerak. Agar sharoit o'rindan turishni talab qilsa, o'quvchilardan ko'rsatmalar tugamaguncha tik turishlarini so'rang. Tugatganingizdan so'ng, topshiriqni qisqacha tushuntiring.

- ◆ O'quvchilardan demonstratsiya jarayonini yaxshiroq ko'rish uchun tez-tez sizning stolingiz yoniga kelishlarini so'rashingiz yoki taqdimot eng oxirgi partaga ham qulay ko'rinishini oldindan rejalashtirish kerak.
- ◆ "Qachon hamma ishni boshlaydi?" kabi takroriy va umumiyl shikoyatlardan saqlaning.
- ◆ Umumiyl ko'rsatmani bir marta bering, keyin topshiriqqa rioxan qilmagan o'quvchilar bilan alohida shug'ullaning.

Ismlarini ayting yoki yonlariga borib ko'z bilan aloqa qiling: "Hurmatli o'quvchi, ishni boshlash vaqtি keldi!"

- ◆ Ko'rsatma berganiningizda o'zingiz ham ularga rioxan qilib, namuna ko'rsatishingiz kerak.

Agar siz o'quvchilardan topshiriqlarni aniq va tartibli bajarishni so'rasangiz, doskada ham shunday yozing. Agar xavfsizlik qoidalariga rioxan qilishni talab qilsangiz, o'zingiz ham ularni bajaring.

Dars tugamaguncha o'quvchilarga sinfni tark etishga ruxsat bermang, bu xavfli odatga olib keladi. Boshqalardan tezroq ishni tugatganlarga qo'shimcha vazifalar bering.

- ◆ Topshiriq maqsadini aniqlab olish, topshiriqni bajarish uchun ajratilgan vaqtga amal qilinishi, natija to'liqligi (hajmi) va biror yechim namunasini (yo'lini) ko'rsatilishi kabi mezonlarga amal qiling.

Asosiy qism (25 daqiqa).


Tushuntirish uchun material.




Suv – ajoyib tabiiy modda. Yilning sovuq faslida suv muzlab, **qor** yoki **muzga** aylanadi. Qor yoki muz erisa, u yana qaytib suvgaga aylanadi. Agar suv qattiq qizdirilsa, u asta-sekin bug'lanadi, ya'ni **bug'ga** aylanadi.

"Suv-obihayot!" — nega shunday deyiladi? Suv biz uchun nega muhim?

Mazkur savol-javob o'quvchilarda nutqni rivojlantiradi. Suvning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini anglashga zamin yaratiladi.



44



45

Tabiatdagi **tuman** hodisasi qaynayotgan qozon yoki chovgumdan chiqayotgan bug'ning xuddi o'zidir. Yerdagi suv bug'lari baland osmoniga ko'tarilib, bir joyga to'planadi. Ular pastdan bizga **bulut** bo'lib ko'rindi. Baland osmonda suv bug'lari yana soviydi va yerga yomg'ir, do'l yoki qor bo'lib qaytib tushadi.

Darslikning 46-betidagi Rasmlarga qarab, suvning holati qanday



o'zgarishini aytib bering. Bu o'zgarishlar nimaga bog'liq?

Quvnoq daqiqalar:

Shundan so'ng,
o'quvchilarning charchab
qolmasligi uchun
harakatlanuvchi mashq
yoki barmoq/ko'zlar



gimnastikasini bajarishingiz mumkin. Ekranga rasmni chiqaring va tushuntiring.

Qomatimiz chiroyli va sog'ligimiz mustahkam bo'lishi uchun to'g'ri o'tirishimiz, mashq qilishimiz zarur.



Mustahkamlash qismi:

Darslikning 46-betidagi topshiriqni bajarishni davom ettiramiz. Suv yana nimalarga aylanishi mumkin?

Shu o'rinda
o'quvchilarga suvni asrash,
undan oqilona foydalanish
zarurligini tushuntirish
maqsadga muvofiq.

Inson organizmi asosan
suvdan iborat va vaqtida,
yetarli suv ichish sog'liq
uchun foydali.



Baholash va yakunlash qismi (5 daqiqa):

Ayting-chi, bugun biz nimani o'rgandik? Yana qaysi fanlarda shu mavzuga oid ma'lumotlar olgansiz? Savol-javob asosida umumlashtirish amalga oshiriladi.

Biz o'z sinfdoshlarimiz bilan birgalikda ishladik, erishgan yutuqlarimiz do'stligimiz va bir-birimizga samimiyl munosabatimiz tufaylidir. Men sizlar bilan faxrlanaman! Keling o'zimiz va sinfdoshlarimizni olqishlab qo'yamiz! Barakalla!
Ofarin!